

GLOBALASHUV SHAROITIDA MEDIA HAMDA KIBER XAVFSIZLIKNING AHAMIYATI

Babadjanov Salohiddin Sobitdjonovich

O'zbekiston Respublikasi Harbiy

Havfsizlik va Mudofaa Universiteti

Istiqbolli Harbiy Texnologiyalari Kafedrası Dotsenti

p.f.f.d (PhD) professor

MAQOLA MALUMOTI

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 28.11.2025

Revised: 29.11.2025

Accepted: 30.11.2025

KALIT SO'ZLAR:

*kiberxavfsizlik,
axborot xavfsizligi,
glaballashuv, media
immunitet, media
xavfsizlik
manipulyatsion
axborotlar.*

Ushbu maqolada axborotlashgan jamiyatda kiberxavfsizlik bo'yicha immunitetni rivojlantrish zaruriyati informatsion muhitida mas'uliyatli va xavfsiz xulq-atvor ko'nikmalarini singdirish orqali kiberxavfsizligini rivojlantirishning metodik omillari ilmiy talqin qilishga qaratilgan. Shu bilan birgalikda manipulyatsion axborot xaosini himoya qilishda kiber immunitetni ahamiyati haqida keltirib o'tilgan.

Mustaqillik davrida mamlakatimizda har tomonlama yetuk va barkamol shaxslarni tayyorlash borasida ulkan ishlar amalga oshirib kelinmoqda, ta'lim tizimi davlat va jamiyat rivojlanishining ustuvor yo'nalishiga aylandi.

Hammamizga ma'lumki, uchinchi ming yillikning ijtimoiy-madaniy mohiyati jahon iqtisodiyatining globalashuvi, jamiyatni axborotlashtirish, ilmu-fan, texnika, turli xil ommaviy axborot vositalari va fuqarolik jamiyatining jadal rivojlanishi hamda ma'naviy qadriyatlarning o'zgarishi bilan bevosita bog'liqdir.

Ba'zi odamlar "Axborot texnologiyalari xavfsizligi", "Axborot xavfsizligi" va "Kiberxavfsizlik" atamalarini sinonim sifatida ishlatishadi. Turli manbalarda (Internetda va ilmiy nashriyotlarda) bir nechta ta'riflar va taqqoslashlar nashr etilgan. Manbalardagi ma'lumotlarni taxlil qilgan holda va ushbu sohalarida faoliyat yuritayotgan mutaxassislar bilan hamkorlikda ushbu tushunchalar haqida tasavvurimizni taqdim etishga qaror qildik.

Davlatlarning harbiy tashkilotlari "kiberxavfsizlik"ga strategic nuqtai nazardan yondashadi. Shuningdek, ular "kiberxavfsizlik" atamasini "kiber urush" atamasi bilan birgalikda ishlatishadi.

Yevropa Ittifoqining kiberxavfsizlik agentligi (The European Union Agency for Network and Information Security - ENISA) hujjatlarida kiberxavfsizlik: kommunikatsion xavfsizlik, operatsiya xavfsizligi, axborot xavfsizligi, fizik xavfsizlik va milliy xavfsizlik sohalarini o'z ichiga qamrab olishini belgilangan⁴⁸.



Fizik xavfsizlik - kiber tizim holatiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan fizik (jismoniy) tahdidlardan himoya qilish. Bu serverlarga fizik kirish, tarmoqqa zararli dasturlarni kiritish yoki foydalanuvchilarni bunga majburlash.



Milliy xavfsizlik –fizik va kiber aktivlarga tahdid solishi orqali tajovuzkorning siyosiy, harbiy yoki strategik ustunlikka ega bo'lish mumkin bo'lgan kibermakondagi tahdidlardan himoya qilish. Bu Axborot tizimlariga va tarmoqlariga yoki boshqa sanoat infratuzilmalariga hujumlardir.



Kommunikatsiyalar xavfsizligi – kibertizimlarning texnik infratuzilmasiga ta'sir qilishi, yani uning egalari, ishlab chiquvchilari yoki foydalanuvchilari tomonidan ko'zda tutilmagan harakatlarni bajarilishi, ya'ni konfiguratsiya o'zgarishiga olib kelishi mumkin bo'lgan tahdidlaridan himoya qilish.




Operatsiya (jarayonlar) xavfsizligi – egalari, ishlab chiquvchilari yoki foydalanuvchilar tomonidan ko'zda tutilmagan natijalarga olib kelishi mumkin bo'lgan ish jarayonlarining ataylab buzilishlaridan himoya qilish.

⁴⁸ «Definition of Cybersecurity – Gaps and overlaps in standardisation», The European Union Agency for Network and Information Security (ENISA), 2015



Axborot xavfsizligi - kibertizimda saqlanayotgan va uzatiladigan ma'lumotlarni o'g'irlash, yo'q qilish yoki o'zgartirish kabi tahdidlardan himoya qilish.

Ushbu yuqorida keltrib o'tilgan fizikdan tortib axborot xavfsizligigacha bo'lgan jarayonlardan keylib chiqib biz quydagiga kiberxavfsizlik tizimining komponentlarini misol tariqasida keltiramiz (1-rasm).



1-rasm kiber hujumlarni qo'llanishi bo'yicha eng ko'p tarqalgan usuli

Ana endi Kiberxavfsizlik tushunchalari nima ekanligini ko'rib chiqamiz.

Kiberxavfsizlik – kibermakonda shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarining tashqi va ichki tahdidlardan himoyalanganlik hoholati.

Kibermakon deganda axborot texnologiyalari yordamida yaratilgan virtual muhitni tushunish mumkin⁴⁹.

Kibermakon falsafada va kompyuter texnologiyalarida qo'llaniladigan metaforik abstraksiya bo'lib, ham kompyuterlarning "ichki" ham kompyuter tarmoqlarining "ichki" ikkinchi dunyosi sanalgan virtual xaqiqatdir.

Sohaviy tushunchada, kiberxavfsizlik - bu konfidensiyal ma'lumotlarni, axborot tizimlarini va tarmoqlarni kiberjinoyatchilar tomonidan amalga oshiriladigan kiberhujumlar

⁴⁹ Kiberxavfsizlik to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Qonuni, 15.04.2022 yildagi O'RO-764-son, 3- modda

(raqamli hujumlar)dan himoya qilishga yordam beradigan jarayonlar, eng yaxshi amaliyotlar va texnologik yechimlar to'plamidir.

Axborot xavfsizligi – axborot munosabatlarining subyektlariga nomaqbul ziyonlarni keltirishi mumkin bo'lgan tabiiy yoki sun'iy xususiyatli tasodifiy yoki qasddan qilingan ta'sirlardan axborot va ta'minlab turadigan infratuzilmaning muhofaza qilinganligi.

Kiberxavfsizlik bo'yicha Foydali Tavsiyalar:

1. **Parol**
2. **Shifrlash:**
3. **Yangilanishlar:**
4. **Kiber Huquqbuzarliklardan Ogoh Bo'lish:**
5. **Zaxira Nusxalari:**
6. **Xavfsizlik Tizimlari:**

Shu bilan bir qatorda Dunyo rivojlanishining asosiy tendensiyalari orasida jamiyat xayotining barcha sohalarida media vositalarining ta'siri muammolari dolzarblashayotgan paytda informatsion jamiyatga o'tish muhim ahamiyat kasb etadi. Shubxasiz, axborot texnologiyalari insonlar xayotiga shu darajada chuqur kirib bormoqdaki, ularni umummadaniy kontekstdan chiqarib tashlab bo'lmaydi. Shuning bilan birga e'tirof etish lozimki, media axborotni uning iste'molchilariga bo'lgan nafaqat ijobiy, balki salbiy ta'siri ham oshib bormoqda. Hozirda axborot oqimi asosan media kanallari orqali amalga oshirilmoqda. Bu media kanallari orqali berilayotgan ma'lumotlarni taxlili yondashish ham muhim kasb etadi.

Axborotlashgan jamiyatda media va immunitet atamalarini qo'llash natijasida «media immunitet» tushunchasi paydo bo'ldi. Bu – yolg'on xabarlar hamda manipulyatsiyaga bardoshlilik sanaladi.

Bizga ko'rinib turibdiki, sivilizatsiyalashgan davlatlarning deyarli hech bir aholisi o'z hayotini raqamli texnologiyalarsiz tasavvur qila olmaydigan va har kuni axborot maydonida bo'lgan bir paytda, ommaviy axborot vositalari media hamda kiber makonning yaqin aloqalarini e'tiborsiz qoldirish endi qabul qilinishi mumkin bo'lmagan holat.

Bugungi tahlikali davrda media tamonidan yoritilayotgan ma'lumotlarni taxlilini ko'rib chiqamiz (2-rasm).

Media matn orqali media immunitetni rivojlantrish



2-rasm media tasvir orqali manipulyatsi xolati

Suratda ko'rinib turgandek dunyoga mashxur tele (tv) kanal orqali harbiy siyosatga oyid surat lavhasi e'lon qilingan. Ushbu suratda uch xil kadr aks etgan ko'rshingiz mumkin. 1-kadrda go'yoki unga qurol o'htarib qiynoqqa solish tasvirlangan, 2- kadrda esa suratni to'liq rakusi aks etgan unda ko'rishingiz mumkin voqilik aslida birinchi kadrda aks etkandek emas. Shu tariqa uchunchi kadr ham mavjud. Bunda shunin taxlil qilish mumkinki media kontentda berilgan ma'lumotlar doyimham shaffof bo'lmasligi, biroz vaziyatni to'liq aks etishini dizinformatsiyaga berilmaslik talab qiladi.

Zamonaviy urushlarda kiber bo'linmalarining nafaqat kiberhujimlar balki ularni media olamdagi faoliyatga ham to'xtalish lozim.

MEDIA XAVFSIZLIKNING ASOSIY JIHATLARI



Xulosa qilib aytganda axborotlashgan jamiyat sharoitida hozirgi yoshlarni kelajak xayotga tayyorlashda OAV turlari, ular orqali axborotlarni yaratish va uzatish usullarini o'rgatish orqaligina erishishimiz mumkin. Bugungi yoshlar televidenie, gazeta, jurnal, kino, radio va Internet bilan kunlik xayotida duch keladilar va ularning xayotida OAV muhim o'rin egallab kelmoqda. Va bunday jarayonga pedagogik aralashuvsiz, aniq va maqsadli rejalarsiz o'sib kelayotgan avlodni kelajak xayotga tayyorlash mumkin emas.

Taklif va tavsiyalar

Yuqorida keltirilgan fikrlarni kelib chiqib, yuqori darajali media immunitet kompetentligiga ega xarbiy xizmatchilarning mediabilimlarini mediasavodxonligini raqamli (kompetentligini) rivojlantirish maqsadida. Qurolli Kuchlar Akademiyasi Boshlig'ining tashabbusi bilan professor-o'qituvchilar tarkibining axborot texnologiyalari bo'yicha bilim va ko'nikmalarni rivojlantirish maqsadida maxsus o'quv kurslari QKATvaK kafedrasida tashkil qilingan. Ushbu maxsus kursni tamomlaganligi to'grisida sertifikat berish tizimi joriy qilinmagan.

Taklif. Har maxsus kursning so'ngida ishtirokchilardan ularning axborot texnologiyalari media va raqamli kompetentligi darajasini aniqlash lozim va tegishli toifalangan sertifikat bilan taqdirlanishi tavsiya etiladi. Bilim darajasini baholashda 1-ilovaga asosan amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'lardi (tavsiya etiladi).

1-ilova

T/r	Professor-o'qituvchilarning AKT bo'yicha rivojlanganlik darajasi xarakteristikasi				
	Yo'nalishlar	Belgilanish	darajalanishi		
			Past	O'rta	Yuqori
1	MS Office ilovalari to'plamini bilish darajasi	O	1	2	3
2	Multimedia texnologiyalarini qo'llash darajasi	M	1	2	3
3	Internet texnologiyalaridan foydalanish darajasi	I	1	2	3
4	Axborot xavfsizligini (Kiberxavfsizlik) bilish darajasi	K	1	2	3

Izoh. Masalan, S.S. Bobojonovning kurs yakunida axborot texnologiyalari bo'yicha rivojlanganlik xarakteristikasi:

AKT bo'yicha rivojlanganlik darajasi			
O	M	I	K
3+	2+	3	3

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Парламентская Ассамблея Совета Европы. Документ №8753 от 6 июня 2000.
2. Harakatlar strategiyasi asosida jadal taraqqiyot va yangilanish sari risola. –T.:2017y 70-71b.
3. Babadjanov S. S. (2022). Zamonaviy kiber-makonda bo'lajak harbiy xizmatchilarning media madaniyatni rivojlantirishga tasir etuvchi omillar. International journal of philosophical studies and social sciences, 28-31